



НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

BALIQCHI TUMANINING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Uktamov Urayimjon Shavkatjon O'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

katta o'qituvchisi

Xusanova Mashxura Erkinjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Baliqchi tumanining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, jumladan tumanning tashkil topishi, hududi, chegarasi, aholisi, demografiyasi, sanoati, sanoat korxonalari hajmi, eksport, import kabi ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Baliqchi tumani, sanoat korxonalari, tug'ilish, o'lim, migratsiya, eksport va import.

Аннотация. В данной статье представлена информация об основных экономических показателях Балыкчинского района, включая организацию района, территорию, границу, население, демографию, промышленность, размеры промышленных предприятий, экспорт, импорт.

Ключевые слова: Балыкчинский район, промышленные предприятия, рождение, смерть, миграция, экспорт и импорт.

Abstract. This article provides information on the main economic indicators of Balikchi district, including the district's organization, territory, border, population, demography, industry, size of industrial enterprises, export, import.

Key words: Balikchi district, industrial enterprises, birth, death, migration, export and import.

Kirish. Mustaqillik yillaridan boshlab kichik hududlarni o'rganishga e'tibor qaratila boshlandi. Holbuki, o'tgan asrda tadqiqotlar katta hududlar darajasida olib borilgan, bugungi kun tadqiqotlar ko'lami mikro-mintaqalar darajasida olib borilmoqda. Hozirgi davrda globallashuv, umumiyligidan tadqiqot maxsus, katta maydonlardan kichik maydonlarga xizmat qiladi chunki geografik hodisalarning kelib chiqishi va har qanday mintaqadagi hodisalar sabablari va oqibatlarini aniq ochib berish mukammal darajada olib boriladi . Respublika hududlarining ichki tarkibi quyidagilardan iborat O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovular. Hududlarni kichik maydon yoki hududda o'rganish vujudga keladigan muammolarni yuzaki emas balki keng doirada , chuqur tadqiq etishga imkon beradi.

Asosiy qism. Baliqchi tumani 1962- yil 24- dekabrda tashkil topgan bo'lib, Andijon viloyatining ma'muriy-hududiy birligi hisoblanadi. Baliqchi tumani hududiy yer maydoni 0,34 ming kv km. Baliqchi tumani Namangan viloyati (79 km), Ulug'nor tumani (20 km), Bo'ston tumani (1,8 km), Oltinko'l tumani (36,2 km) Izboskan tumani (18,5 km) va Shahixon tumanlari bilan (20 km) chegaradosh.

Baliqchi tumani ma'muriy hududiy tarkibi bo'yicha 44 ta qishloq aholi punkti, 66 ta mahalla fuqarolar yig'inidan iborat. Baliqchi tumanida 53,4 mingta oilalar mavjud.

НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

Baliqchi tumanida sanoat ishlab chiqarish tarkibi. 2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari 518 tani tashkil etdi. Shundan, 516 ta kichik korxona va mikrofirmalar, shu jumladan 7 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar mavjud. 2022- yilda 146 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilib, ushbu korxonalar kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda, xususan, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning 15,2% i, teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarishning 6,9% i, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari 5,5% i, kiyim ishlab chiqarishning 1,2% i, yog‘och va po‘kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohol va to‘qish uchun materiallar ishlab chiqarishning 0,2% i, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning 7,6% i Baliqchi tumani hissasiga to‘g‘ri keladi.

1-jadval.

Baliqchi tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)

Sanoat mahsuloti	2020- yil	ulushi, %	2021- yil	ulushi, %	2022- yil	ulushi, %
Jami	767,9	100,0	1 296,1	100,0	1 512,7	100,0
Yirik korxonalar	459,8	59,9	733,2	56,6	600,9	39,7
Kichik biznes	308,1	40,1	562,9	43,4	911,8	60,3

2023- yilning 1- yanvar holatiga Baliqchi tuman aholisi soni viloyat doimiy aholisining (3 322,7 ming kishi) 6,4 foizini yoki 211,3 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 4,2 ming kishiga yoki 2,0 % ga o‘sdi. Shundan, 70,7 ming kishi shahar joylarida va 140,6 ming kishi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Shuningdek, 2023- yilning 1-yanvar holatiga Baliqchi tumanida 103,5 ming kishi ayollar va 107,7 ming kishini erkaklar tashkil etgan. Aholi zichligi 1 kv km uchun 621 kishiga to‘g‘ri keladi.

Tug‘ilish. Baliqchi tumanida 2022- yilda tug‘ilganlar soni 5 305 kishini tashkil qildi va 2021- yilga (5 183 kishi) nisbatan 122 taga ko‘paydi, shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 25,4 promilleni tashkil qildi.

O‘lim. Baliqchi tumanida 2022- yilda o‘lganlar soni 980 kishini tashkil qildi va 2021- yilga (996 kishi) nisbatan 16 kishiga kamaydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil qildi (2021- yilda 4,9 promille bo‘lgan).

Migratsiya. 2022- yilda tuman bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 266 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 371 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig‘i -105 kishini tashkil etgan, 2021- yilda minus -246 kishi bo‘lgan.

Eksport hajmi. Tumanda 2022- yilda eksport hajmi 41 576,5 ming AQSH dollari (qimmat baho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilga nisbatan 44,9

НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

foizni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 100,0 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (87,0 %), turli xil tayyor buyumlar (7,7 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (3,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (1,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Import hajmi : Baliqchi tumanida 2022- yilda import hajmi 10 051,6 ming AQSH dollarini, 2021- yilga nisbatan 158,0 foizni tashkil etdi.

2-jadval

Baliqchi tumanining import tarkibi o'sish sur'atlari (ming AQSH doll.)

Import tarkibi	2020-yil	o'sish sur'ati, %	2021-yil	o'sish sur'ati, %	2022-yil	o'sish sur'ati, %
Jami import	2275,8	84,7	6 363,7	2,8 m.	10051,6	158,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1055,9	133,7	1 156,6	109,5	341,1	29,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	125,2	9,6 m.	293,3	2,3 m.	637,7	2,2 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	78,9	90,6	10,2	12,9	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	126,7	10,5 m.	243,7	192,4	244,8	100,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiya-langan sanoat tovarlari	257,6	104,1	581,0	2,3 m.	483,5	83,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	517,5	39,3	4 017,7	7,8 m.	7 988,8	198,7

НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

Turli xil tayyor buyumlar	114,0	51,4	61,2	53,7	355,8	5,8 m.
---------------------------	-------	------	------	------	-------	--------

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Baliqchi tumanining yer resurslari cheklangan. Bu yerda aholining o'sib borishi va iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun mahalliy xom ashyni qayta ishlaydigan zamonaviy korxonalarini qurish va faoliyat ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiyotning turli sohalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali tumanning investitsion jozibadorligini oshirish, paxta bilan bog'liq to'qimachilik klasterini rivojlantirish. Shu bilan birga, sabzavot, poliz, xom meva, uzum va pilla xomashyosini qayta ishlaydigan zamonaviy korxonalar, xom ashyni qayta ishlaydigan zamonaviy korxonalar qurilishi va ishga tushirilishi tumanning iqtisodiy rivojlanishini yanada oshiradi va iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Azatovna, N. F. (2023). THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TECHNOLOGY LESSONS. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(27), 129-132.
2. Azatovna, N. F. (2023). Development of Technical Creativity In Robotics Classes. Journal of Creativity in Art and Design, 1(1), 11-13.
3. Azatovna, N. F. (2023). Robotics in Their Classes Technical Creativity in Development Used Methods Technology. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(5), 81-84.
4. Алимова, Ш. А., & Ниёзова, И. Н. (2021). Бизнес-коммуникации в системе управления промышленных структур. Academy,(1 (64)), 55-57.
5. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. Modern Science and Research, 2(10), 712-717.
6. Abidovna, A. S. (2024). FORMATION AND DEVELOPMENT OF CAREER AS PERSONNEL TECHNOLOGY OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT. Gospodarka i Innowacje., (45), 327-332.
7. Abidovna, A. S. (2024). THE IMPACT OF E-ACCOUNTING IN MODERN BUSINESSES.
8. Abidovna, A. S. (2023). Priority directions of analysis of channels of promotion of the main activity of the enterprise and separate communication programs. Gospodarka i Innowacje., 42, 369-374.
9. Алимова, Ш. А., & Халимова, Д. Р. (2021). СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СТРАТЕГИЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 340-344).



НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

10. Abidovna, A. S. (2023). MONTE CARLO MODELING AND ITS PECULIARITIES IN THE IMPLEMENTATION OF MARKETING ANALYSIS IN THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 375-380.
11. Abidovna, A. S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM.
12. Alimova, S. A., & Khatov, V. S. (2022). ON THE WAY OF TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN APPLICATION OF ELECTRONIC MARKETING STRATEGIES OPPORTUNITIES. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 303.
13. Alimova, S. (2023). THE CONCEPT AND TASKS OF A MODERN MANAGEMENT SYSTEM ENTERPRISE PERSONNEL. *Modern Science and Research*, 2(12), 1085-1090.
14. Abidovna, A. S. (2023). MODERN TRENDS IN MANAGEMENT STRATEGIES AND THEIR APPLICATION IN COMMERCIAL BANKS. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 326-332.
15. Alimova, S. A., & Nutfullaevna, K. M. (2022). STATE MANAGEMENT OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY OF ENTERPRISES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 75-80.
16. Alimova, S. A., & Shavkatovich, P. S. (2022). THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENT IN ENSURING THE FINANCIAL SUSTAINABILITY OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 359-364.
17. Abidovna, A. S. (2023). Special directions of tourism development in Bukhara region: problems and solutions. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 51-55.
18. Abidovna, A. S. (2024). "PERSONNEL MANAGEMENT" AND "HUMAN RESOURCE MANAGEMENT": HISTORY OF ORIGIN, ESSENCE AND RELATIONSHIP OF CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 336-343.
19. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
20. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 385-390.